

UDC: 343.35

KORRUPSIYA SHAKLLARI VA TURLARINI TASNIFLASH MUAMMOLARI

Boydedayev Sadirdin Abdusattorovich,

Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0000-0002-9771-6886

e-mail: salimov.22@inbox.ru

Annotatsiya. Maqolada dunyo mamlakatlari, shu jumladan O'zbekiston uchun eng dolzarb masalalardan biri bo'lgan korrupsiya tipologiyasi va shakllari, ko'rinishlari haqida so'z boradi. Muallif ta'kidlaganidek, hozirgi kunga kelib, jamiyatda korrupsiyaga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan iqtisodiy va institutsional omillar yetarlicha o'rganilgan. Shu bilan birga, aholi va alohida shaxslarning korrupsiyaga nisbatan tushunchasi yetarli emasligi, korrupsiyaning shakl va turlari g'oyatda kengligi bilan bog'liq omillar nisbatan kam o'rganilgan. Shu munosabat bilan muallif korrupsiyaga doir tipologiyalar, tasniflar va qarashlarni o'rganib, bu boradagi eng maqbul mezonlar bo'yicha tasniflash lozimligi haqidagi g'oyalarni ilgari suradi. Shuningdek, maqolada korrupsiyaning tarqalish sohasi, mansabdorlar lavozimlari iyerarxiyasi hamda korrupsiyaviy harakatlar barqaror (takroriy)ligi bo'yicha turlari farqlangan. Bunda millatlararo korrupsiya, bir organ doirasida sodir etilgan korrupsiya, xususiy sektordagi korrupsiya, oliy darajadagi (elita) korrupsiya, o'rta darajadagi korrupsiya, quyi bo'g'inlardagi korrupsiya, tasodifiy (individual) korrupsiya hamda tizimli korrupsiya kabi korrupsiyaning asosiy turlari yuzasidan xulosalar keltirilgan. Maqolada korrupsiya bilan bog'liq ijtimoiy xavfli qilmishlarni tasniflashga oid ilmiy-nazariy qarashlar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: korrupsiya, tipologiya, tasniflash, mansabdor shaxs, mansab, jamiyat, korrupsiyaga munosabat.

ПРОБЛЕМЫ КЛАССИФИКАЦИИ ФОРМ И ВИДОВ КОРРУПЦИИ

Бойдедаев Садирдин Абдусатторович,

самостоятельный соискатель

Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В статье рассмотрены проблемы типологии, форм и разновидностей коррупции, являющейся одной из наиболее острых проблем для стран всего мира, в том числе Узбекистана. Как отмечает автор, к настоящему времени довольно хорошо изучены экономические и институциональные факторы, которые могут способствовать коррупции в обществе. Вместе с тем факторы, связанные с недопониманием понятия коррупции населением и отдельными индивидами, наличие множества видов и форм коррупции исследованы мало. В этой связи автором изучены типология, классификация и мнения относительно коррупции и выдвинуты идеи о необходимости классификации по наиболее приемлемым критериям коррупции. Также в статье различаются виды коррупции, иерархия должностей должностных лиц, устойчивость (повторяемость) коррупционных действий. В ней обобщены основные виды коррупции, такие как: межэтническая коррупция, внутриведомственная коррупция, коррупция в частном секторе, коррупция на высоком (элитном) уровне, коррупция на среднем уровне, коррупция на низовом уровне, случайная (индивидуальная) коррупция и системная коррупция. В

статье представлены научно-теоретические взгляды на классификацию общественно опасных деяний, связанных с коррупцией.

Ключевые слова: коррупция, типология, классификация, должностное лицо, должность, общество, отношение к коррупции.

PROBLEMS RELATED TO THE CLASSIFICATION OF FORMS AND TYPES OF CORRUPTION

Boydadaev Sadirdin Abdusattorovich,

Independent researcher,
Tashkent State University of Law

Abstract. This article reveals the problems of typology and forms, varieties of corruption, which is one of the most acute problems for countries around the world, including Uzbekistan. As the author notes, by now the economic and institutional factors that can contribute to corruption in society have been fairly well studied. At the same time, the factors associated with the misunderstanding of the concept of corruption by the population and individuals, the presence of many types and forms of corruption have been little studied. In this regard, the author studied typologies, classifications and opinions regarding corruption, and put forward ideas about the need for classification according to the most acceptable criteria for corruption. The article also distinguishes the types of corruption, the hierarchy of positions of officials, and the sustainability (repetition) of corrupt practices. The article summarizes that the main types of corruption are inter-ethnic corruption, intra-agency corruption, private sector corruption, high-level (elite) corruption, middle-level corruption, lower-level corruption, random (individual) corruption, and systemic corruption. The article presents scientific and theoretical views on the classification of socially dangerous acts related to corruption.

Keywords. Corruption, typology, classification, official, position, society, attitude towards corruption.

Kirish

Bugungi kunda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish butun dunyoda dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "korrupsiyaning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo'lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog'i rivojlanmaydi" [1].

Korrupsiya ijtimoiy hodisa sifatida tizimli tusga ega. Bu uning takror va takror sodir etilishi, ommaviyligi, tarixan o'zgaruvchan bo'lsa-da, asosiy negizi yagonaligi, ijtimoiy ahamiyat kasb etishi kabi xususiyat va belgilari bilan taqozo etiladi. Korrupsiyadan iborat huquqbuzarlik fosh etilguniga qadar uni aniqlash hamda ro'yxatga olishga to'sqinlik qiluvchi turli xil latent ko'rinish va shakllarga ega bo'ladi. Bu qilmishlarni

qayd etish va ularga yuridik jihatdan qonuniy baho berish imkoniyatini sezilarli darajada murakkablashtiradi. Biroq ko'plab davlatlarda korrupsiya amaliyoti ko'lamida juda keng bo'lib, ular tizimli tusga ega. Sababi korrupsiya nafaqat siyosatchilar va mansabdor shaxslarni qamrab oladi, balki nodavlat sohalar, jumladan, iqtisodiy, ma'naviy, huquqiy va ijtimoiy munosabatlarga ham kirib boradi.

Korrupsiya so'zi lotincha "corrumpere" so'zidan olingan bo'lib, "yiringlab ketish", "tana zaharlanishi" kabi ma'nolarni anglatadi. Bugungi kunda korrupsiya ushbu ma'nosidan ancha kengroq semantik mazmun kasb etadi. Ma'no jihatidan mansabdor shaxslar tomonidan o'ziga berilgan vakolatlardan, qonun va axloqqa zid ravishda shaxsiy manfaatini ko'zlab foydalanishni anglatuvchi termin hisoblanadi. Aksariyat hollarda ushbu termin byuro-

kratik apparat va siyosiy elitaga nisbatan qo'llaniladi [2].

Korrupsiya shaxsiy manfaat yo'lida mansab vakolati yoki hokimiyatni suiiste'mol qilish deb ta'riflanadi [3, 4, 5, 6]. Garchi ayrimlar korrupsiyani "iqtisod g'ildiragini moylash vositasi" [7] sifatida ko'rsalar-da, uning jamiyatga salbiy ta'sir ko'rsatishi haqidagi tasavvur umumiy e'tirof qilingan.

Hozirgi vaqtda "korrupsiya" atamasining bir qancha ta'riflari mavjud bo'lib, milliy tadqiqotlarda korrupsiyaning uchta tarkibiy elementiga alohida urg'u beriladi: pora olish, pora berish va pora oldi-berdisida vositachilik [8, 9]. Shunga ko'ra, ushbu masalani yaqindan o'rganish va olimlar, tadqiqotchilar fikrlarini tahlil qilish negizida maqbul ilmiy-nazariy tasnifni ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Metod va materiallar

Mazkur ilmiy maqolani tayyorlashda ilmiy bilishning mantiqiy va ilmiy uslublaridan foydalanilgan, xususan, mantiqiy tahlil, sintez, tarixiy, qiyosiy-huquqiy kabi uslublar qo'llanilgan. Bundan tashqari, empirik materiallar, xususan, statistika ma'lumotlari, ijtimoiy so'rov natijalari, xorijiy davlatlar qonunchiligi va amaliyoti tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari

Zamonaviy ilmiy adabiyotda korrupsiya shakllari va turlarini tasniflash borasida ko'plab turlicha fikr va qarashlar mavjud. Ularning bunday xilma-xilligi tasniflash uchun asoslar (mezonlar) yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi bilan belgilanadi. Jumladan, taklif etiladigan tasniflash shakllarining aksariyati korrupsiyaning barcha shakllari va turlarini har tomonlama va to'liq aks ettirmaydi. Ko'pincha o'rganilayotgan hodisani tasniflash uchun asos bo'ladigan bitta yoki ikkita mezon bilan cheklanadi.

Korrupsiya shakl jihatidan turfa xil bo'lib, u nafaqat zamonaviy jamiyat hayotining barcha sohalari: iqtisodiyot, siyosat, huquq, axloq va boshqalarga zarar yetkazadi, balki ijtimoiy amaliyot (odatiy xulq-atvor) tusiga

kirib, hattoki ayrim rivojlanayotgan jamiyatlarda ijtimoiy institutga aylanishga ulgurdi.

Tadqiqotchi Duglas Nortning mashhur ta'rifiga ko'ra, *institutlar* – bu jamiyatdagi "o'yin qoidalari" bo'lib, insonlar o'rtasidagi munosabatlarni tashkil qiladi va barcha sohalarda – siyosatda, ijtimoiy sohada va iqtisodiyotda o'ziga xos "moddalar almashinuvi"ga tizimlilik berib turadi [10, 16-b.].

Hokimiyatning oliy "pog'onasida" iqtisodiy korrupsiya urf bo'lgan. Uning shakllari mansabni suiiste'mol qilish, pora berish yoki olish, tijoratda pora evaziga og'dirish va boshqa shu kabi shakllardan iborat.

O'z navbatida, I. Ahmedov korrupsiyani mansabdor shaxsning foydani taqsimlashdagi ishtiroki darajasiga qarab tasniflaydi. U "progressiv" deb nomlanadigan korrupsiya va tadbirkorlar uchun to'siqlar yaratishga asoslangan korrupsiya shakllarini ajratadi [11]:

1. *Progressiv (ilg'or) korrupsiya* mansabdor shaxslarning tadbirkorlar daromadlarini taqsimlashda bilvosita ishtirok etishini ko'zda tutadi. Bu tadbirkorlarga bitimlardan olinadigan foydani ko'paytirish imkonini beruvchi ma'lum imtiyozlar berish hisobiga yuz beradi.

Korrupsiyaning bu turi G'arb mamlakatlari keng tarqalgan. I. Ahmedovning nazdida, bu shakl negizida qo'shimcha foyda taqsimoti yotganligi tufayli bu progressiv turdagi korrupsiyadir.

2. Korrupsiyaning ikkinchi turi tadbirkorlarga sun'iy to'siqlar yaratishga asoslangan. Bunda ularning maqsadi "ularning bartaraf etilishi uchun to'lov" olishdir. Istalgan amaldor tadbirkor bilan o'ziga (va unga) naf keltiradigan munosabatni o'rnatishi mumkin. Bunda, agar tadbirkor mansabdor shaxs bilan hech qanday o'zaro kelishilgan munosabatlarga kirishishni istamasa, uning faoliyati bankrotlik bosqichiga olib kelinadi. Bu rivojlanmagan mamlakatlarda urf bo'lib ulgurgan eng salbiy korrupsiya turidir.

A.Verbin ham o'ziga xos ravishda "sivilizatsiyalashgan" va "siyosiy" shakldagi kor-

rupsiyani ajratib ko'rsatadi. Shu bilan uning yondashuvi I. Ahmedovnikiga ancha o'xshab ketadi [12]:

1. *Sivilizatsiyalashgan korrupsiya* mazmuni shundaki, ko'pchilik mamlakatlar korrupsiyaga rasman ruxsat berish orqali uni qonuniylashtirgan.

Chet elda biron-bir shartnoma tuzmoqchi bo'lgan har qanday kompaniya pora uchun maxsus pul ajratgan va ularni umumiy chiqimlar turi sifatida qayd etgan. Basharti, biron-bir muammo tufayli pora foyda bermagan bo'lsa (aytaylik, kimdir kattaroq pora bersa), kompaniya hukumatdan yetkazilgan zarar uchun tovon talab qilishi mumkin.

2. *Siyosiy korrupsiya* – bu korrupsiyaning shunday turiki, uning asosiy ishtirokchilari davlat organlari tizimida yuqori lavozimlarni egallagan mashhur siyosatchilardir [13, 23-b.].

Tadqiqotchi T. Safarov davlat boshqaruvi organlaridagi korrupsiyaning alohida shakllarini o'rgangan holda, ularning uchta umumiy tipi mavjudligini ta'kidlaydi:

- ma'muriy korrupsiya – alohida shaxs yoki bir necha shaxslar manfaatida mansabdor shaxs tomonidan haq evaziga (masalan, pora evaziga), ma'lum ma'muriy hujjatni chiqarishda (imtiyoz, kredit berish va h.k.) namoyon bo'ladi;

- byudjet korrupsiyasi – oliy toifadagi yoki mas'ul lavozimdagi amaldorlar tomonidan davlat byudjeti mablag'larini yirik hajmlarda o'zga shaxslar bilan birga o'zlashtirib yuborish yoki maqsadli ravishda ishlatmasdan, shaxsiy manfaati yo'lida sarflab yuborish;

- obro'-e'tibori yoki nufuzidan (ta'sir kuchidan) foydalanish – xususiy sektor vakillari tomonidan nufuzli davlat organi vakilining ta'sir kuchidan foydalanish orqali shaxsiy manfaatga ega bo'lish [14].

Ayrim olimlar va tadqiqotchilar korrupsiyani tasniflash uchun uning huquqqa xiloflik, ijtimoiy xavf darajasi va boshqa bir qator mezonlaridan foydalanadi. Bunda korrupsiya-

ning quyidagi ijtimoiy ahamiyatga ega (xavfli) turlari ajratib ko'rsatiladi [15]:

1. *Poraxo'rlik* – mansabdor shaxs o'z xizmat vazifasini ado etgani uchun yoki egallab turgan lavozimi tufayli boshqa shaxslar yoki tashkilotlardan oldindan bila turib qonunga xilof ravishda moddiy mukofot olishidan iborat jinoyat. Poraxo'rlik davlat va mahalliy organlarning hokimiyat va boshqaruv organlarini obro'sizlantiradi, ularning nufuziga putur yetkazadi, barcha amaldorlarni sotib olish mumkinligi, barcha muammolarni mansabdor shaxsga pora berish orqali hal qilish mumkinligi haqidagi salbiy va zararli g'oya hamda tasavvurlarni keltirib chiqaradi.

2. *Mansab vakolatlarini suiiste'mol qilish* – mansabdor shaxsning o'z vakolatlaridan faol foydalanishi yoki aksincha, mansabdor shaxs o'z xizmat vazifalarini qasddan bajarmasligi (harakatsizligi) oqibatida sodir etiladi. Bunda mansabdor shaxs aynan o'zganing hisobidan mulkiy foyda olish maqsadida qasddan mansab vakolatlarini suiiste'mol qiladi.

3. *Tadbirkorlik faoliyatida qonunga xilof ravishda ishtirok etish*. Bu ham ancha keng tarqalgan korrupsiyaviy jinoyat hisoblanadi. Amaldagi qonunchilik mansabdor shaxslarga tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishni taqiqlaydi: mustaqil ravishda yoki vakil orqali aksiyadorlik jamiyatlari, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarni boshqarishda qatnashish man etilgan. Shunga qaramay, ayrim davlat xizmatchilari ma'lum korxona xo'jalik faoliyatining faol ishtirokchisi bo'lib qolaveradi [16].

Korrupsiyani tasniflashda A.I. Gurovning tasnifi alohida o'rin egallaydi. U mazkur hodisani uyushgan jinoyatchilikning eng asosiy belgilaridan biri deb hisoblaydi va korrupsiyaning quyidagi uchta asosiy shaklini ajratishni taklif qiladi:

1) siyosiy korrupsiya – bunda hokimiyat apparati amaldorining axloq va qonun normalariga zid ravishda pora olishdan iborat faoliyati emas, balki "sizdan ugina, bizdan bugina", "qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi" kabi

tamoyillar hukmron bo'lgan urug'-aymoq, oilaviy rishtalar, qarindosh-urug'chilik munosabatlari nazarda tutiladi. Korrupsiyaning bunday shakllari urug'-qabila munosabatlari ma'lum o'ringa ega va urf-odat ko'rinishidagi normalar faol amal qiladigan hududlarda yaqqol namoyon bo'ladi;

2) poraxo'rlik faoliyati bilan bog'liq korrupsiya – jinoyatchilarga haq evaziga muayyan xizmat ko'rsatuvchi mansabdor shaxslarni pora berib og'dirish (sotib olish) dan iborat bo'lib, bu yerda har ikki tomon ham tamagirlik maqsadlarini ko'zlab, go'yoki bir-biriga intiladi;

3) kriminal korrupsiya – tegishli toifadagi mansabdor shaxslarni uzoqni ko'zlagan maqsadda jinoiy faoliyatga jalb qilish bilan bog'liq korrupsiyaviy xulq-atvor shakllari bo'lib, bu amaldorlar muayyan masalalarni hal qilish uchun alohida qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida og'diriladi [17]. Korrupsiyaning bu shakli uyushgan jinoyatchilik bilan bog'liq bo'lib, ko'p hollarda poraxo'rlikdan tashqari, mansabdor shaxslarga nisbatan hattoki provokatsiya va qo'rqitish kabi usullar qo'llaniladi [18].

M. Jonston korrupsiyani to'rtta katta tipga (toifaga) ajratishni taklif qiladi:

1) savdo sohasidagi korrupsiya – mas'ul amaldorlarga noqonuniy ishlab chiqarilgan mahsulotlar oldi-sotdisi, tovarlar sifatini oshirib ko'rsatish va boshqa qoidabuzarliklar uchun pora berish;

2) homiylik korrupsiyasi – munosabatlar, shu jumladan urug'doshlik, qarindoshlik, partiyadoshlik tamoyillari asosida "rahbarlar" homiyligi;

3) do'stlik va qarindoshchilik;

4) krizis korrupsiyasi – tadbirkorlar hokimiyat organlari qarorlari o'z biznesi uchun jiddiy o'zgarishlarga olib kelishi ehtimoli mavjud, favqulodda xatarli sharoitda faoliyat yuritishga majbur bo'lib, shunga ko'ra aynan shu qarorlarning savdolashish predmetiga aylanishi [19].

Tadqiqotchi A.Xeydanxaymer tomonidan ilgari surilgan tasnif ham o'ziga xos ahamiyatga ega [20]. Bu tasnif negizida jamoatchilik ongidagi korrupsiyaviy xulq-atvor amaliyot mavjudligiga roziligi yoki noroziligi yotadi. Bu holatda korrupsiya "oq", "kulrang", "qora" turlarga bo'linadi:

1) "oq" korrupsiya – bu jamoatchilik ongida rozilik yuzaga kelgan amaliyotdir: ushbu xatti-harakatlar qoralanmaydi, mohiyatan tegishli hudud yoki xalq madaniyatiga singib ketgan va muammo sifatida qabul qilinmaydi;

2) "kulrang" korrupsiya – bu jamiyatda kelishuv mavjud bo'lmagan amaliyotlardir. Aynan shu sohada jamiyat ichida ko'plab janjallar paydo bo'ladi;

3) "qora" korrupsiya – bu jamiyatning barcha a'zolari tomonidan so'zsiz qoralanadigan korrupsiyaviy xulq-atvor.

Ko'rib chiqilayotgan tasniflarning afzaligi shundaki, ular korrupsiya hodisasini har taraflama, uning ayrim funksional (ijobiy) jihatlarni baholovchi qarashlarni ham o'z ichiga olib, shu orqali, jumladan, "ilg'or", "sivilizatsiyalashgan" korrupsiya turlari ajratib ko'rsatiladi. Biroq ayni damda bunday mulohaza yuritishda korrupsiyani aniqroq tasniflash uchun fundamental ahamiyatga ega bo'lgan bir qator jihatlarga e'tibor qaratish joiz.

Tadqiqot natijalari tahlili

Ta'kidlash lozimki, bugungi kunda korrupsiya turlari va shakllari bo'yicha ilmiy-nazariy qarashlarda yakdillik kuzatilmaydi.

I.I. Karpes to'g'ri ta'kidlaganidek, jahondagi qonunlarning birortasida "korrupsiya" tushunchasi jinoyat tarkibi sifatida tilga olinmaydi, zero, u jinoyat tarkibini tashkil etmaydi, balki jinoyatchilik kabi boshqa ko'pgina ijtimoiy hodisalar kabi ijtimoiy hodisadir [21].

Misol uchun, M.X. Rustambayevning nazdida, mansabdor shaxs tomonidan o'z xizmat vakolatini suiiste'mol qilishga lavozimni egallab turgan vaqt davomida vakolatlarni suiiste'mol qilish kiritiladi. Mansabdor shaxs o'ziga kerakli bo'lgan qarorga erishish maqsadida o'z xizmat vakolatlaridan emas, balki

xizmat yoki shaxsiy aloqalari, egallab turgan lavozimning obro'sidan foydalansa, jinoyat tarkibi bo'lmaydi [22].

Shu kabi B. Axrarovning fikricha, korrupsiya faqat mansabdor shaxslarning vakolatlaridan kelib chiqib, bunday mansabdor shaxslarning ham aynan ayrim yuqori toifalaridan kelib chiqishi bilan xarakterlanib, bunda poraxo'rlik suiiste'molchilik vakolat doirasidan chiqish kabi jinoyatlarda ifodalanadi. Korrupsiya mansabdorlik jinoyatlarining mansabga sovuqqonlik bilan qarash, mansabdor shaxs tomonidan sodir etiladigan ekologiyaga qarshi jinoyatlarni o'zi ichiga ololmaydi [23].

Bizningcha, bu borada V.V. Luneyevning fikri to'g'riroq. Unga ko'ra, bozor iqtisodiyoti, erkin savdo va demokratiya sharoitida korrupsiya Jinoyat kodeksida belgilangan oddiy poraxo'rlik va mansab vakolatini suiiste'mol qilishning primitiv turlari bilan cheklanmaydi. U bugungi kunda lobbichilik, "yoqimtoylar"ni ko'tarish, proteksionizm kabi keng urf bo'lgan korrupsiyaviy amaliyotlarni jinoiy deb belgilashga intilib [24], korrupsiyani davlat xizmatchilarining qonunga xilof xatti-harakatlarini baholash mezoni asosida tasniflashni taklif qiladi.

Tadqiqotchi Sh.R. Qobilovning fikricha, davlatning ruxsat berish funksiyalarining haddan tashqari keng doirada saqlanib qolishi ham korrupsiyaning ildizlaridan biri hisoblanadi [25].

A.A. Amanov korrupsiyaviy harakatlarga iqtisodiy subyektlarning moliyaviy va xo'jalik faoliyatiga davlatning, ayniqsa, mahalliy davlat organlarining aralashuvi holatlarini ham kiritadi [26].

Tadqiqotchilar N.I. Xalilova va N.S. Jabborovlar turli huquqiy adabiyotlarda berilgan ta'riflardan kelib chiqib, korrupsiya tarkibiga jamiyat manfaatlari, davlat hokimiyati va boshqaruv tartibiga qarshi qaratilgan, kishilarning siyosiy tizimlarga nisbatan ishonchini susaytiradigan davlat xizmatchilarining xizmat mavqeyini suiiste'mol qilish bi-

lan bog'liq ijtimoiy xavfli qilmishlarni kiritadi [27].

Amaliyotda korrupsiya tasnifi davlat vazifalarini amalga oshiruvchi shaxslar tomonidan turli huquqiy normalar (konstitutsiyaviy, ma'muriy, jinoyat) buzilishi bilan bog'lanadi. Bu tamoyilga asoslanib, korrupsiyaviy qilmishlar doirasini sezilarli darajada kengaytirish mumkin. Jumladan, yuridik adabiyotda zamonaviy jamiyatga xos bo'lgan va korrupsiyaga olib keladigan quyidagi urf bo'lgan (tipik) qonun buzilishlar ajratiladi [28]:

- davlat xizmatida va nodavlat notijorat tashkilotlarda lavozimlarning bevosita yoki yashirilgan holda, bir vaqtning o'zida bajarilishi holatlari;

- davlat xizmatchilari tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlariga bevosita yoki yashirin haq evaziga bevosita yoki bilvosita xizmatlar ko'rsatish;

- tijorat tashkilotlariga ular bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo'lgan muayyan imtiyozlar, foyda va preferensiyalar berish;

- davlat xizmatchilari tomonidan tijorat (notijorat) tashkilotlari maqsadlarida shaxsiy yoki idoraviy ta'siri hamda norasmiy aloqalardan foydalanish;

- davlat xizmatchisi tomonidan hali rasman e'lon qilinmagan, ammo xizmat vazifalariga ko'ra xabardor bo'lgan ma'lumotlardan foydalanish;

- davlat xizmatidan ketganidan so'ng o'z xizmat mavqeyidan foydalangan holda, nodavlat sohada shaxsiy ishga joylashish;

- mansabdor shaxslar tomonidan kelgusida nodavlat sohada ishga joylashishni ko'zlagan holda yoki bevosita va dalashgan holda qaror qabul qilish;

- sobiq davlat xizmatchilari tomonidan o'zining sobiq idorasi faoliyati to'g'risidagi "ichki" ma'lumotlaridan, ilgari o'rnatilgan norasmiy aloqalardan o'zining yangi ish korxonasi imtiyoz olish uchun foydalanish;

- mansabdor shaxslar ishlayotgan davlat korxonalari mol-mulkidan foydalangan holda, tijorat tuzilmalarini tashkil etish, ushbu

tuzilmalar rahbariyatida ishtirok etish, ular uchun imtiyozli holat yaratib berish, davlat va mahalliy mulkni xususiyashtirish rayonida o'z xizmat mavqeyidan foydalanib, ushbu obyektlarni sotib (egallab) olish, ular aksiyadorlik jamiyatiga aylantirilsa, aksiyalar nazorat paketiga egalik qilish;

– davlat (jamiyat) ehtiyojlari uchun mo'ljallangan moliya va kredit mablag'larni qonunga xilof ravishda (tamagirlik niyatida) tijoriy tashkilotlarga o'tkazish.

Bundan tashqari, adabiyotda korrupsiyaning aniq va yashirin (latent) shakldagi ko'rinishlari muammosi alohida muhokamalarga sabab bo'ladi. Xususan, hech bir yuridik, madaniy va axloqiy me'yorlarga ega bo'lmagan lobbizm amaliyoti, tashkilotlar nizomi va boshqa ta'sis hujjatlarini rasmiylashtirish, faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash, bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirishda tarqalgan byurokratiya korrupsiya uchun qulay muhit hisoblanadi.

Darhaqiqat, bu borada qonunchiligimiz ma'lum o'zgarishlarga muhtoj. Xususan, O'zbekiston Respublikasi 2008-yil 7-iyuldagi qonun bilan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (Nyu-York, 2003-yil 31-oktabr) qo'shildi.

Konvensiyaning 15-moddasida "Milliy ommaviy mansabdor shaxslarni pora evaziga og'dirish" deb nomlangan norma mavjud bo'lib, unga ko'ra, har bir ishtirokchi davlat o'z jinoyat qonunchiligida ommaviy mansabdor shaxsga shaxsan yoki vositachilar orqali ushbu mansabdor shaxsning o'zi uchun yoxud boshqa jismoniy yoki yuridik shaxs uchun, ushbu mansabdor shaxs o'z lavozim vazifalarini bajarish vaqtida biron harakatni amalga oshirishi yoki harakat qilmasligi maqsadida, biron noqonuniy afzallikni va'da qilish, taklif etish yoki taqdim etish uchun javobgarlik belgilashi lozimligi qayd etilgan. O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunida esa faqat porani taqdim qilish to'g'ridan to'g'ri jinoyat sifatida baholangan [29].

Shuningdek, amaldagi Jinoyat kodeksi-ning 210-moddasida mansabdor shaxsning moddiy qimmatliklar olishi yoxud mulkiy manfaatdor bo'lishi uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Bunda mansabdor shaxsning faqat o'zi uchungina moddiy manfaat olishi 210-modda dispozitsiyasi bilan qamrab olinganligini ko'rishimiz mumkin. Vaholanki, korrupsiyaga doir xalqaro hujjatlarda muayyan harakatlarni "shaxsiy manfaatlar" bilan bir qatorda "o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab" bajarish ham nazarda tutilgan [30].

Xullas, ijtimoiy-iqtisodiy tahlil doirasida korrupsiya shakllari nisbatan "keng" bo'lib, o'z ichiga, jumladan, yashirin iqtisodiyot sohasidagi, qonun doirasidagi, ammo mohiyatan korrupsiyaviy xatti-harakatlarni ham qamrab oladi.

Xulosalar

Bizningcha, korrupsiya tasnifi nafaqat mazkur muammoning jamiyatdagi institutlashuvi darajasini hisobga olishi, balki nisbatan aniq va konkret asoslarga ega bo'lishi hamda shunga mos ravishda nafaqat "tipik", balki o'ziga xos alohida "tur" shakllarini (korrupsiyaviy xulq-atvor shakllari) ham o'z ichiga olishi mumkin.

Bunday tasniflarda "urf bo'lgan soha", "davlat xizmatchilari lavozimlari iyerarxiyasi", "namoyon bo'lish ko'lam", "barqarorlik darajasi" kabi mezonlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Demak, *tarqalish sohasi bo'yicha* korrupsiya quyidagi turlarga bo'linadi:

1) millatlararo korrupsiya;

2) bir davlat, davlat organi doirasida sodir etilgan korrupsiyaviy harakatlarda ifodalan-
gan davlat korrupsiyasi (bularga oliy ta'lim sohasidagi korrupsiyani misol keltirish mumkin [31]);

3) xususiy sektordagi korrupsiya, ya'ni tadbirkorlik sohasida sodir etiladigan turli xil korrupsiyaviy harakatlar.

Mansabdorlar lavozimlari iyerarxiyasi bo'yicha quyidagi turlarini ajratish taklif etiladi:

1) oliy darajadagi (elita) korrupsiya – yirik miqdorli yoki o'ta muhim ahamiyatga ega qarorlarni qabul qilish huquqi bilan bog'liq, masalan, davlat buyurtmalari, mulkchilik shaklini o'zgartirish va boshqa;

2) o'rta darajadagi korrupsiya – o'rta bo'g'inlarda keng tarqalgan bo'lib, asosan, mansabdor shaxslar xizmat ko'rsatishi bilan bog'liq;

3) quyi korrupsiya – eng keng tarqalgan bo'lib, amaldorlar va fuqarolarning kundalik turmushda vujudga keladigan o'zaro aloqalari bilan bog'liq. Bu turli jarimalar, penyalari tayinlash, ro'yxatga olish va boshqalar.

Korrupsiyaviy harakatlarning barqaror (takroriy)ligi bo'yicha quyidagi ikki turi ajratiladi:

1) tasodifiy (individual) korrupsiya, ya'ni korrupsiyaning yagona (bir martalik) faktlarini o'z ichiga olgan hodisa;

2) tizimli korrupsiya butun jamiyat hayotini qamrab oladigan, davriy ravishda takrorlanib turadigan korrupsiyaviy xatti-harakatlarni o'z ichiga olgan, asta-sekinlik bilan fuqarolar ma'qullagan xulq-atvor usuliga aylanib boradi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, korrupsiyaning namoyon bo'lish shakllari juda xilma-xil bo'lib, yuqoridagi shakllar zamonaviy davrda eng keng tarqalgan ko'rinishlarni faqat qisman aks ettiradi. Qolaversa, ularning xilma-xilligi jamiyatning ma'lum bir davr hayotidagi o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga bog'liq.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 25.01.2020 yildagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Available at: <https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkatmirziyeevning-oliy-25-01-2020/>.

2. Ismailov B.I., Nasriev I.I. Mezhdunarodnye standarty v sfere spravedlivogo pravosudiia i ikh realizatsiia v Respublike Uzbekistan [International standards in the field of fair justice and their implementation in the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, Akademiia General'noi prokuratury Respubliki Uzbekistan, Vysshaia shkola sudei pri Vysshem sudeiskom sovete Respubliki Uzbekistan – Academy of the General Prosecutor's Office of the Republic of Uzbekistan, Higher School of Judges under the Supreme Judicial Council of the Republic of Uzbekistan, 2020, p. 210.

3. Svensson J. Eight questions about corruption. *The Journal of Economic Perspectives*, 2005, vol. 19, no. 3, pp. 19–42.

4. Park H. Determinants of corruption: A cross-national analysis. *The Multinational Business Review*, 2003, vol. 11, no. 2, pp. 29–48.

5. Van Klaveren V.J.. The concept of corruption. Political Corruption. Ed. by A.J. Heidenheimer, M. Johnston, V.T. LeVine. New Brunswick, NJ, Transaction Publ., 1989, pp. 89–91.

6. Heidenheimer A.J. Perspectives on the perception of corruption. Political Corruption. Ed. by A.J. Heidenheimer, M. Johnston, V.T. LeVine. New Brunswick, NJ, Transaction Publ., 1989, pp. 149–163.

7. Meon P.-G., Sekkat K. Does corruption grease or sand the wheels of growth? *Public Choice*, 2005, vol. 122, pp. 69–97.

8. Uralov S. Korrupsiyaviy element sifatida yashirin iqtisodiyotning kriminologik jihatlari [Criminological aspects of the shadow economy as a corrupt element]. Editor-in-Chief: D. Bazarova, etc. Tashkent, Tashkent State University of Law, 2020, 92 p.

9. Shamsutdinov B.S. Korrupsiyaviy jinoyatlar uchun javobgarlik [Responsibility for corruption crimes]. Editor-in-Chief: D.B. Bazarova, etc. Tashkent, Tashkent State University of Law, 2020, 120 p.

10. Nort D. Instituty, institutsional'nye izmeneniia i formirovanie ekonomiki: per. s angl. [Institutions, institutional changes and the formation of the economy: translation from English]. Moscow, Fond ekonomicheskoi knigi – Fund of the economic book, 1997, p. 16.
11. Akhmedov I. Korruptsiionnyi bespredel [Corruption Lawlessness]. *Monitor*, 2003, April 10, no. 14.
12. Verbin A. Ne podmazhesh', ne pod"edesh' [If you don't grease, you won't drive up]. *Sovetskaya Rossiya – Soviet Russia*, 2003, March 7.
13. Bor'ba s korruptsiei v gosudarstvennykh organakh Respubliki Kazakhstan [Fight against corruption in state bodies of the Republic of Kazakhstan]. Ed. E.O. Alauhanova. Almaty, 2008, p. 23.
14. Safarov T.U. Obshchie teoreticheskie aspekty korruptsii v organakh gosudarstvennogo upravleniya [General theoretical aspects of corruption in public administration]. *Yurisprudensiya – Jurisprudence*, 2021, no. 2, pp. 141–150.
15. Ugolovnoe pravo Rossii [Criminal law of Russia]. Ed. I.Ya. Kozachenko, Z.A. Neznamov. Moscow, Norma-Infra-M, 2000, pp. 456–480.
16. Minzaripov R.G. Protivodeistvie korruptsii [Anti-corruption]. Kazan, 2016, 148 p.
17. Gurov A.I. Organizovannaya prestupnost' – ne mif, a real'nost' [Organized crime is not a myth, but a reality]. Moscow, Znanie Publ., 1992, pp. 21–22.
18. Cherednichenko E.E. Poniatie korruptsii na sovremennom etape [The concept of corruption at the present stage]. *Probely v rossiiskom zakonodatel'stve – Gaps in Russian legislation*, 2020, no. 1, pp. 120–122.
19. Osnovy bor'by s organizovannoi prestupnost'yu [Fundamentals of combating organized crime]. Ed. V.S. Ovchinsky, V.E. Eminov, N.P. Yablokov. Moscow, Yurizdat, 1996, pp. 14–15.
20. Heidenheimer A., Johnston M. Political Corruption. New Brunswick, Transaction Publ., 1989, pp. 23–24.
21. Karpets I.I. Organizovannaya prestupnost' kak sotsial'naya i iuridicheskaya problema, ee tendentsii i prichiny [Organized crime as a social and legal problem, its trends and causes]. *Organized crime-2*. Ed. A.I. Dolgovoy, S.V. Dyakiva. Moscow, 1993, pp. 13–15.
22. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi [Course of criminal law of the Republic of Uzbekistan]. Vol. 4. 2nd edition, supplemented and revised. Tashkent, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti – Military-Technical Institute of the National Guard of the Republic of Uzbekistan, 2018, 339 p.
23. Axrarov B.D. Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish jinoyati uchun jinoiy javobgarlik [Criminal liability for abuse of power or position]. Tashkent, TSUI, 2005, p. 3.
24. Luneev V.V. Korruptsiya: politicheskie, ekonomicheskie, organizatsionnye i pravovye problem [Corruption: political, economic, organizational and legal problems]. *Gosudarstvo i pravo – State and Law*, 2000, no. 4, pp. 99–107.
25. Qobilov Sh.R. Korruptsiyaga qarshi kurash: iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy choralari va yo'llari [Fight against corruption: economic, spiritual and educational measures and ways]. Tashkent, pp. 22–26.
26. Amanov A.A. Korruptsiyani yuzaga keltiruvchi shart-sharoitlar va omillar [Conditions and factors that lead to corruption]. *Fighting Corruption is the Key to Public and State Security. Proceedings of the Republican Scientific-Practical Conference (November 26, 2015)*. Tashkent, O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi – Academy of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2016, p. 287.
27. Halilova N.I., Jabborov N.S. Korruptsiyaning kushanda sifatidagi mazmun-mohiyati, tipologiyasi va shakllari [The essence, typology and forms of corruption as a killer]. *Scientific Progress*, 2021, vol. 2, iss. 7, pp. 1272–1276.
28. Luneev V.V. Korruptsiya: uchtennaya i fakticheskaya [Corruption: recorded and actual]. *Gosudarstvo i pravo – State and law*, 1996, no. 8, p. 81.
29. Xidoyatov B. Ayrim xorijiy davlatlarda poraxo'rlik uchun jinoiy javobgarlik masalalari [Issues of criminal liability for bribery in some foreign countries]. *Uzbekiston Respublikasi Bosh*

prokuraturasi Akademiyasi Axborotnomasi – Bulletin of the Academy of the General Prosecutor's Office of the Republic of Uzbekistan, 2018, no. 3 (35). Available at: <https://uzjournals.edu.uz/proacademy/>.

30. Shamsutdinov B.S. Korruptsiyaviy jinoyatlarga oid amaldagi qonunchilik muammolari va ularni bartaraf etish istiqbollari [Problems of current legislation on corruption crimes and prospects for their elimination]. Available at: <https://www.researchgate.net/publication/345435827/>.

31. Kuchkarov Z. Oliy ta'lim sohasida korrupsiya va korrupsiyaviy xavf-xatar tushunchalari [Concepts of corruption and corruption risks in higher education]. *Jamiyat va innovatsiyalar – Obshchestvo i innovatsii – Society and innovations*, 2021, spec. iss., no. 7.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

1 / 2022

BOSH MUHARRIR:

Tashkulov Akbar Djurabayevich
Toshkent davlat yuridik universiteti rektori

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Salayev Nodirbek Saparbayevich
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d.,
professor

Mas'ul muharrir: O. Choriyev

Muharrirlar: Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva, Y. Yarmolik

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Web-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Jurnal 15.03.2022-yilda tipografiyaga
topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.
Shartli 21,36 b.t. Adadi: 100. Buyurtma: № 7.

TDYU tipografiyasida chop etildi.